

YoShLAR ISHTIROKIDA HASHAR TASHKIL ETILDI



YoShLAR ISHTIROKIDA HASHAR TASHKIL ETILDI

Hayit bayrami arafasida Guliston mahalla fuqarolar yig'inida mahalla yoshlarining faol ishtirokida hashar tashkil etildi.

- Mahallamizda joylashgan sel yo'lining bir qismida naqliyot harakatlanishi uchun noqulaylik vujudga kelgani bois, mahallamiz yoshlari bilan maslahatlashib, ushbu hududni tekis va ravon qilish maqsadida hashar tashkil etdik. Olib kelingan shag'al bilan mazkur hudud birpasda ipaqaga keltirildi. Buning uchun yoshlarimizga minnatdorlik bildiraman, - deydi Guliston mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Mehriddin Muxtorov.

Albatta, xalq manfaati yo'lida qilingan har bir ezgu tashabbusni qo'llab-quvvatlash har birimizning vazifamizdir.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-05-04 16:17:29